

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Y.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

RAXIMOVA DILOROM XAITBAYEVNA

**FUQAROLIK HUQUQIDA BENEFITSIAR MOL-MULKNING
FUQAROLIK HUQUQIY MAQOMI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy

Raximova Dilorom Xaitbayevna

Fuqarolik huquqida benefitsiar mol-mulkning fuqarolik-huquqiy maqomi.....3

Рахимова Дилором Хаитбаевна

Гражданско-правовой статус бенефициарной собственности в гражданском праве..... 19

Rakhimova Dilorom Khaitbayevna

The civil-legal status of beneficiary property in civil law..... 37

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 41

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Y.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

RAXIMOVA DILOROM XAITBAYEVNA

**FUQAROLIK HUQUQIDA BENEFITSIAR MOL-MULKNING
FUQAROLIK HUQUQIY MAQOMI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Yu1446 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsul.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Imomov Nurillo Fayzullayevich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yakubov Axtam Nusratilloevich
yuridik fanlar doktori, dotsent

Rahimjonov Akmaljon Baxromjon o‘g‘li
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

Yetakchi tashkilot:

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash
va malakasini oshirish instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01. raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 22-noyabr soat 10:00dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36 faks: (99871) 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1438-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko‘chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 3-noyabr kuni tarqatildi.

(2025-yil 3-noyabrdagi 96-raqamli reyestr bayonnomasi).

I.R. Rustambekov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, yuridik fanlari doktori, professor

D.Y. Habibullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, yuridik fanlar doktori,
professor

B.K. Xodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik
fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda mulkchilik munosabatlarning adolatli huquqiy tartibga solinishi hamda mulkdorlarning huquqlarini amalga oshirishdagi qonuniylik masalalari davlat va jamiyatning iqtisodiy rivojlanishini belgilovchi omillardan biri sanaladi. Shu jihatdan moddiy ne'matlar, turli korxonalar, xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan "benefitsiar mulk" ko'rinishidagi egalikning iqtisodiy-huquqiy masalalarini to'g'ri va har tomonlama maqbul belgilash alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, "benefitsiar mulkdorlar"ning ochiq reyestrini yuritish majburiyatini 2024-yil mart holatida 149 mamlakat o'z zimmasiga olgan¹. Bugungi kunda esa, Buyuk Britaniya, Latviya, Estoniya, Daniya, Malta, Irlandiya, Germaniya kabi davlatlarda bunday reyestrlar amal qilayotgan bo'lsa, Niderlandiya, Vengriya, Polsha va Ruminiyada mazkur reyestrlar ishlab chiqilib, qabul qilinish arafasida turibdi².

Jahonda "benefitsiar mulk" ham ijobiy, ham salbiy ma'nodagi mulkchilik ko'rinishi sifatida baholanadi. Muayyan mol-mulk haqiqiy egasi huquqiy maqomini belgilashga nisbatan esa "benefitsiar mulk nazariyasi", "iqtisodiy mulk nazariyasi", "manfaat nazariyasi" kabi nazariyalar yaratilgan. Qolaversa, benefitsiar mulkni – trast, ishonchli boshqarish, uzufukt, superfitsiylar bilan solishtirish va talqin etishga oid urinishlar mavjud. MulK huquqining "parchalanishi"ga asoslangan ingliz-amerika huquq tizimida benefitsiar mulk (beneficial ownership) konsepsiyasi "umumiy huquq"ga (common law) emas, balki, adolat huquqi (equity)dan kelib chiqsa, qit'a huquqida "iqtisodiy mulk" mulK huquqining yagonaligiga asoslanadi. Fuqarolik kodekslaridagi uzufukt hamda ishonchli boshqarish konstruksiyalariga tayanadi. Mohiyatan olib qaraganda, benefitsiar mulk haqiqiy ega "formal ega" niqobi ostiga yashiringan biznesning ko'rinishi sanaladi va shu sababli bunday egaga nisbatan davlat tomonidan o'rnatilgan talablar va shartlarni belgilash ustuvor ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda benefitsiar mulk tushunchasi qonunchilik darajasida belgilangan bo'lishiga qaramasdan, benefitsiar mulkni mulKning bir ko'rinishi sifatida talqin etish, unga nisbatan subyektlar doirasini aniqlash va ularning huquq hamda majburiyatlari belgilash hamda benefitsiar mulkka asoslangan biznesga nisbatan qonunchilik talablarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega. Qolaversa, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida "islohotlarimizga jiddiy to'sqinlik qilayotgan "yashirin iqtisodiyot"ga barham berilmas ekan, sog'lom raqobat ham, qulay investitsiya muhiti ham shakllanmaydi. "Yashirin iqtisodiyot"ning vujudga kelish omillarini chuqur tahlil qilib, unga qarshi kurashish dasturini tasdiqlash" lozimligini ta'kidlaganlar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023), O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1995, 1996), "Mas'uliyati cheklangan

¹ Страны с закрытым списком бенефициарных компаний // <https://ybcase.com/news/strany-s-zakryтым-spiskom-benefitsiarnyh-kompanij>

² Реестры бенефициаров в различных государствах // <https://ru.uniwide.com/articles/reestry-benefitsiarov-v-razlichnykh-gosudarstvakh/>

jamiyatlar to'g'risida"gi (2001), "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi (2012), "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi (2012), "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi (2015), "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi (2019), "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi (2019), "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi (2022) qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F-5464-sonli Farmoyishi bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasi" (2019), "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida" PQ-2646-son, "Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" (2023) PQ-291-son qarorlarini mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Fuqarolik huquqida benefitsiar mol-mulkning fuqarolik-huquqiy maqomi alohida tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etilmagan. Biroq bugungi kunga qadar mulk huquqini tartibga solish masalalari bir qator milliy huquqshunos olimlar tomonidan o'rganilgan. Bular jumlasiga B.R.Topildiyev, H.R.Rahmonqulov, I.Zokirov, J.I.Yuldashev, K.K.Rashidov, N.F.Imomov, O.Okyulov, O.B.Shamsiddinova, V.Yo.Ergashev, Z.A.Amonov, va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Shu bilan birga, MDH mamlakatlarida fidutsiar munosabatlar bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish masalalari I.I.Zikun, P.V.Turishhev, S.B.Anatoliyevich, V.V.Vrityanskiylar tomonidan o'rganilgan.

Xorijiy mamlakatlarda benefitsiar mol-mulk Adolfo Martin Jimenezlar, Charles E, Rounds Jr, H.Robert, John Langbein, Jenik Radon, Mahima Achuthan, Richard Vannlar tomonidan o'rganilgan.

Yuqoridagi ishlarga qaramasdan O'zbekiston Respublikasida fuqarolik huquqida benefitsiar mol-mulkning fuqarolik-huquqiy maqomi hali alohida tadqiqot obyekti sifatida kompleks ravishda o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, "Fuqarolik huquqida benefitsiar mol-mulkning fuqarolik-huquqiy maqomi" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi fuqarolik huquqida benefitsiar mol-mulkning fuqarolik huquqiy maqomini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

benefitsiar mulkning tushunchasi, mohiyati va rivojlanish istiqbollarini belgilab beruvchi milliy va chet el qonunchilik normalarini nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish;

mulk huquqi va benefitsiar mulk huquqi o'rtasidagi farqlar, ularning o'zaro aloqalari va huquqiy asoslarini ochib berish;

benefitsiar mol-mulkning qo'llanish sohalari bilan bog'liq xato va kamchiliklarni vujudga keltiruvchi sabablarni o'rganish va ularni bartaraf etish choralarini ishlab chiqish;

benefitsiar mulkning amalga oshirish shartlari hamda ularni amalda qo'llashning huquqiy asoslarini tahlil qilish;

benefitsiar mulkning huquqiy maqomi, amalga oshirishning huquqiy mexanizmlarini tahlil etish;

benefitsiar mulkni takomillashtirishga doir ilmiy asoslangan takliflar berish;

benefitsiar mulkning obyekt bilan bog'liq huquqiy muammolarni aniqlash va ularning yechimini shakllantirish;

benefitsiar mulk huquqi doirasidagi huquqiy masalalar, qonunchilikdagi bo'shliqlar va ularni to'ldirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti benefitsiar mulkning fuqarolik-huquqiy maqomini aniqlash, benefitsiar mulkga nisbatan huquq subyektlarining vakolatlarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning predmetini benefitsiar mulkning fuqarolik-huquqiy maqomini tadqiq qilish, uning ilmiy-nazariy, qonunchilikni takomillashtirish va huquqni qo'llash amaliyoti bilan bog'liq huquqiy muammolar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borishda tizimli-tuzilmaviy, formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy (tahlil, sintez, deduksiya va induksiya), statistik kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yuridik shaxsni bevosita yoki bilvosita nazorat qiluvchi yoki unga egalik qiluvchi shaxs, agar bunday shaxs shunday yuridik shaxsning yigirma besh foiz va undan ortiq foiz miqdordagi ulushiga bevosita yoxud bitta yoki o'zaro bir-biri bilan bog'langan bir necha yuridik shaxs orqali egalik qilsa, bunday shaxs biror-bir boshqa malaka mezonlariga qo'shimcha tarzda avtomatik ravishda benefitsiar egalik qiluvchi deb hisoblanishi asoslantirilgan;

foydali qazilmalarni qazib olish uchun ruxsatnoma olish uchun ariza berayotgan har bir yuridik shaxs u vakolatli shaxs ekanligining dalili sifatida o'zining benefitsiar egalik qiluvchi to'g'risidagi ishonchli axborotni taqdim etishi kerakligi asoslantirilgan;

hal qiluvchi egalikka ega bo'lgan har bir bevosita va bilvosita muassis (egalik qiluvchi), shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdor to'g'risidagi axborotni taqdim etishi kerakligi asoslab berilgan;

benefitsiar mulkdor ta'sis etilayotgan yuridik shaxs mol-mulking haqiqiy egasi yoki ariza beruvchini haqiqatda nazorat qiluvchi yoxud manfaati ko'zlangan holda pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiya amalga oshirilayotgan jismoniy shaxs bo'lishi mumkinligi asoslab berilgan;

benefitsiar mulkdorlar reyestri vakolatli davlat organi tomonidan yuritiladigan yuridik shaxslarning benefitsiar mulkdorlari haqidagi ma'lumotlarni hamda boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, doimiy yangilab turiladigan elektron ma'lumotlar bazasini (ariza beruvchining benefitsiar mulkdori to'g'risidagi ma'lumotlar aks etgan arizasi asosida tadbirkorlik subyekti – yuridik shaxs davlat ro'yxatidan va (yoki) qayta ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng tizim avtomatik tarzda real vaqt rejimida reyestrga benefitsiar mulkdor to'g'risidagi ma'lumotlarni tegishli ravishda kiritish, chiqarish yoki o'zgartirishni amalga oshiradi) shakllantirish lozimligi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

benefitsiar mulkning fuqarolik-huquqiy maqomi, uning o'ziga xos xususiyatlari hamda mohiyati tadqiq qilinib, FKga benefitsiar mulk huquqiga oid qoidalarni kiritish takliflari asoslab berilgan;

anglo-amerika huquqi tizimidagi adolat huquqi va umumiy huquq nuqtai nazaridan benefitsiar mulk konsepsiya tahlil etilib, fuqarolik huquqi nuqtai nazaridan benefitsiar mulkning ijobiy va salbiy jihatlari ochib berilgan;

benefitsiar mulkka nisbatan “manfaat nazariyasi” hamda “korporativ parda” doktrinalari o'rganilib, benefitsiar mulkda yakuniy mulkdorni belgilash va benefitsiar mulkdorlar reyestrini joriy etish lozimligi asoslangan;

benefitsiar mulkning maqomini aniqlashda biznesni aynan qaysi qismini nazorat qilish va foydani qancha foizini olish mezoniga asoslanishi masalasi o'rganilib, benefitsiar mulk o'zganing mulkini boshqa shaxs tomonidan boshqarishning vakillik, vositachilik, agentlik konsepsiyalariga mos ekanligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishida qo'llanilgan usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy ma'lumotlar rasmiy manbalardan olingani, huquqshunoslar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazilganligi, xorijiy tajriba va milliy qonunchilik hujjatlarining o'zaro tahlil qilingani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, yetakchi milliy nashrlarda e'lon qilinganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan ilmiy tadqiqot faoliyatida, qonun ijodkorligida, huquqni qo'llash amaliyotida foydalanishda, tegishli qonunchilik normalarini sharhlashda ko'rinadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishda, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va Rayosati qarorlarini qabul qilishda foydalanishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Fuqarolik huquqida benefitsiar mol-mulkning fuqarolik huquqiy maqomiga oid tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

yuridik shaxsni bevosita yoki bilvosita nazorat qiluvchi yoki unga egalik qiluvchi shaxs, agar bunday shaxs shunday yuridik shaxsning yigirma besh foiz va undan ortiq foiz miqdordagi ulushiga bevosita yoxud bitta yoki o'zaro bir-biri bilan

bogʻlangan bir necha yuridik shaxs orqali egalik qilsa, bunday shaxs biror-bir boshqa malaka mezonlariga qoʻshimcha tarzda avtomatik ravishda benefitsiar egalik qiluvchi ekanligiga oid taklifdan Oʻzbekiston Respublikasining 2024-yil 31-oktabrdagi “Yer qaʼri toʻgʻrisida”gi OʻRQ-987-son Qonuninig 3-moddasi birinchi qismi birinchi bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Fan, taʼlim va sogʻliqni saqlash masalalari qoʻmitasining 2025-yil 27-martdagi 14/2-son dalolatnomasi). Ushbu taklif tashkil etilgan yuridik shaxslarning benefitsiar egalari aniqlashni yengillashtirishga xizmat qilgan;

foydali qazilmalarni qazib olish uchun ruxsatnoma olish uchun ariza berayotgan har bir yuridik shaxs u vakolatli shaxs ekanligining dalili sifatida oʻzining benefitsiar egalik qiluvchi toʻgʻrisidagi ishonchli axborotni taqdim etishi kerakligi toʻgʻrisidagi taklifdan Oʻzbekiston Respublikasining 2024-yil 31-oktabrdagi “Yer qaʼri toʻgʻrisida”gi OʻRQ-987-son Qonunining 32-moddasi beshinchi qismi toʻrtinchi bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Fan, taʼlim va sogʻliqni saqlash masalalari qoʻmitasining 2025-yil 27-martdagi 14/2-son dalolatnomasi). Ushbu taklif davlat tomonidan foydali qazilma resurslari ustidan nazorat amalga oshirishini takomillashtirishga xizmat qilgan;

hal qiluvchi egalikka ega boʻlgan har bir bevosita va bilvosita muassis (egalik qiluvchi), shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdor toʻgʻrisidagi axborotni taqdim etishi kerakligiga oid taklifdan Oʻzbekiston Respublikasining 2025-yil 11-fevraldagi “Mikromoliyalashtirish faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida”gi Qonuni 2-moddasining sakkizinchi bandini shakllantirishda foydalanilgan. (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Fan, taʼlim va sogʻliqni saqlash masalalari qoʻmitasining 2025-yil 27-martdagi 14/2-son dalolatnomasi). Ushbu taklif shubhali tuzilmalar, soxta mulkdorlar yoki turli firibgarliklarni oldini olishga xizmat qilgan;

benefitsiar mulkdor taʼsis etilayotgan yuridik shaxs mol-mulkinging haqiqiy egasi yoki ariza beruvchini haqiqatda nazorat qiluvchi yoxud manfaati koʻzlangan holda pul mablagʻlari yoki boshqa mol-mulk bilan bogʻliq operatsiya amalga oshirilayotgan jismoniy shaxs boʻlishi mumkinligiga oid taklifdan Oʻzbekiston Respublikasi adliya vazirining 2023-yil 7-yanvardagi 3-um-son buyrugʻi bilan tasdiqlangan Yuridik shaxslarning benefitsiar mulkdorlari reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi toʻgʻrisidagi nizomning 1-bandi ikkinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2025-yil 26-martdagi 21/3-2992/8-son dalolatnomasi). Ushbu taklif iqtisodiy va huquqiy shaffoflikni taʼminlashga xizmat qilgan;

benefitsiar mulkdorlar reyestri vakolatli davlat organi tomonidan yuritiladigan yuridik shaxslarning benefitsiar mulkdorlari haqidagi maʼlumotlarni hamda boshqa maʼlumotlarni oʻz ichiga olgan, doimiy yangilab turiladigan elektron maʼlumotlar bazasi (ariza beruvchining benefitsiar mulkdori toʻgʻrisidagi maʼlumotlar aks etgan arizasi asosida tadbirkorlik subyekti – yuridik shaxs davlat roʻyxatidan va (yoki) qayta roʻyxatdan oʻtkazilgandan soʻng tizim avtomatik tarzda real vaqt rejimida

reystrga benefitsiar mulkdor to'g'risidagi ma'lumotlarni tegishli ravishda kiritish, chiqarish yoki o'zgartirishni amalga oshiradi) shakllantirish lozimligi haqidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2023-yil 7-yanvardagi 3-um-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Yuridik shaxslarning benefitsiar mulkdorlari reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi to'g'risidagi nizomning 1-bandi uchinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2025-yil 26-martdagi 21/3-2992/8-son dalolatnomasi). Ushbu taklif sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga benefitsiar mulkdorlar haqidagi zarur ma'lumotlarni olishlariga imkoniyat yaratishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 4 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, shu jumladan OAKning dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan nashrlarda 6 ta maqola (2 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 156 betni (foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashqari) tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi, uning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi va dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Fuqarolik huquqida benefitsiar mol-mulkning umumiy tasnifi”** deb nomlangan birinchi bobida fuqarolik huquqida benefitsiar mol-mulk tushunchasi, mazmuni va uning turlari, “benefitsiar mulkdor” mol-mulkning subyekti sifatida huquqiy maqomi, benefitsiar mulkning fuqarolik-huquqiy maqomini belgilovchi qonunchilikning rivojlanish genezisi, ingliz-amerika huquqidagi “benefitsiar mulk” va qit'a huquq tizimidagi mamlakatlar fuqarolik huquqida “iqtisodiy mulk” konsepsiyasi kabi masalalar o'rganilgan.

Tadqiqotchi benefitsiar mol-mulk tushunchasi, mazmuni va uning turlari ilmiy jihatdan tahlil qilishda huquqshunos olimlar P.E.Graham, A.J.McGill, S.V.Shitkov, I.B.Zokirov, S.A.Brown, E.Kryzhanovskaya, A.V.Gidirim, A.Zaki, K.Kvitman fikr va qarashlaridan foydalanib, ular bilan muzokaraga kirishgan. Mazkur muzokara yakunlariga ko'ra benefitsiar mol-mulk tushunchasi va egalik qiluvchi atamalariga quyidagi mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan:

Benefitsiar mulk – bu yuridik konsepsiya bo'lib, u mulk yoki aktivlarning rasmiy (huquqiy) mulkdorligi boshqa shaxs yoki tashkilot nomiga rasmiylashtirilgan bo'lsa ham, ulardan foydalanish, tasarruf etish va daromad olish huquqini anglatadi. Xalqaro huquq amaliyotida benefitsiar mulk (beneficial ownership) yashirin yoki

noaniq mulk shakli sifatida qaraladi, bu holda haqiqiy foyda oluvchi (benefitsiar) aktivdan iqtisodiy foyda ko‘radi, lekin rasmiy mulkdor sifatida ro‘yxatdan o‘tmagan bo‘lishi mumkin.

Benefitsiar egalik qiluvchi – yuridik shaxsni bevosita yoki bilvosita nazorat qiluvchi yoki unga egalik qiluvchi shaxs. Agar bunday shaxs shunday yuridik shaxsning yigirma besh foiz va undan ortiq foiz miqdordagi ulushiga bevosita yoxud bitta yoki o‘zaro bir-biri bilan bog‘langan bir necha yuridik shaxs orqali egalik qilsa, bunday shaxs biror-bir boshqa malaka mezonlariga qo‘shimcha tarzda avtomatik ravishda benefitsiar egalik qiluvchi deb hisoblanadi.

Tadqiqotchi fuqarolik huquqida benefitsiar mol-mulkning fuqarolik huquqiy maqomini tahlil qilarkan, hozirgi kunda bu borada bir necha doktrinal qarashlar mavjud ekanligiga, jumladan, benefitsiar mulkdor oxirgi foyda oluvchi ekanligiga, benefitsiarning manfaati moddiy bo‘lmagan huquq (majburiyat huquqi) ekanligiga, trast muassisi, trasti yoki benefitsiarning real mulk huquqini ta‘minlamaydi, balki bu huquqni trast sifatidagi maxsus muassasaga tegishli ekanligiga, mulk huquqini benefitsiarlarga yoki ishonchli mulkdorga o‘tkazishni tanlash huquqi berilishi mumkin ekanligiga oid nazariyalarni keltirib o‘tadi.

Shu bilan birga dissertant benefitsiar mulk majburiyat-huquqiy, mulkiy-huquqiy, korporativ-huquqiy konsepsiyalarini ochib berishga harakat qilgan.

Tadqiqot natijasida majburiyat-huquqiy hamda korporativ-huquqiy konsepsiya qo‘llab-quvvatlanishi haqida xulosaga kelingan.

Tahlillar natijasida tadqiqotchi benefitsiar mulk ko‘p hollarda de facto ko‘rinishida, ya‘ni mulkni rasmiy ravishda egallash huquqi bo‘lmagan, lekin undan amalda foyda ko‘radigan yoki undan foydalanayotgan shaxsning holatini anglatishi asoslantirilgan. Bunda, benefitsiar mulkning egasi qonuniy jihatdan mulkni tasdiqlamagan yoki rasmiy ravishda mulkni boshqarish huquqiga ega emas, ammo amalda undan foyda olishini nazarda tutishini ta‘kidlangan.

Tadqiqotchi, shuningdek, mulkning fuqarolik-huquqiy maqomini belgilovchi qonunchilikning rivojlanish genezisi bir qator xorijiy mamlakatlar (Buyuk Britaniya, AQSh, Germaniya, Italiya) va milliy tajriba asosida qiyosiy tahlil etilgan. Xususan, benefitsiar mulkni O‘zbekiston milliy huquq tizimi – kontinental huquq tizimida qo‘llash uchun benefitsiar mulkdor konsepsiyasining sivilistik huquq an‘analariga ega davlatlardagi (masalan, Germaniya va Niderlandiya) tajribasi muhim ahamiyat kasb etishi tahlil qilingan.

Disertant Ingliz-amerika huquqidagi “benefitsiar mulk” va qit‘a huquq tizimidagi mamlakatlar fuqarolik huquqida “iqtisodiy mulk” turlarini tarixiy va qiyosiy huquqshunoslik kontekstida o‘rganar ekan, “benefitsiar” so‘zi lotincha “beneficialis” so‘zidan olingan bo‘lib, u “bene” – “foйда” (good, well) va “ficere” – “qilish” making, doing) so‘zlaridan shakllanganligini ta‘kidlagan.

Demak, “benefitsiar” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi “foйда oluvchi” yoki “imtiyozga ega shaxs” (pertaining to a favor, privileged) degan ma‘noga ega.

“Benefitsiar mulk” konsepsiyasi ildizlari o‘rta asrlar Angliyasi fuqarolik huquqi va trast huquqiga borib taqaladi. U dastlab “uses” (inglizcha “the use” – foydalanish) shaklida, ya‘ni yer uchastkalaridan foydalanish huquqi sifatida mavjud bo‘lgan.

Tadqiqotchining ta'kidlashicha, FKda nazarda tutilgan mulkdor vakolatlarining "triadasi" (egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish)dan farqli o'laroq, benefitsiar mulk huquqining mazmuni nazorat vakolatlarini, ya'ni qaram shaxs mulki ustidan hal qiluvchi ta'sir o'tkazish yoki uning huquqiy taqdirini belgilash imkoniyati o'z ichiga oladi. Huquqiy tabiatiga ko'ra, bu nazorat huquqi benefitsiar mulkdorga tegishli bo'lgan, lekin qaram yuridik shaxsning mulk huquqidan farq qiluvchi mulkiy huquq hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **"Fuqarolik huquqiy munosabatlarda benefitsiar mol-mulkka nisbatan egalik huquqlari"** deb nomlangan ikkinchi bobida benefitsiar mulk huquqini amalga oshirishning ba'zi fuqarolik-huquqiy masalalari, benefitsiar mulkga oid shartnoma va bitimlarning o'ziga xos xususiyatlari, benefitsiar mulkdor mol-mulkning subyekti sifatida tahlil qilingan. A.A.Ivanov, L.S.Maruotti, D.V.Dojdev, H.Rahmonqulov, M.Y.Magaziner, S.F.Kechekyan, E. Rounds Jr, H.Robert, John. H. Langbein, Jenik Radon, Mahima Achuthan, Richard Vann, Adolfo Martín Jiménez, A.V.Kanashevskiyning fikrlari o'rganilib, ular bilan munorazaga kirishilgan. Mazkur bobda dissertant benefitsiar mulkdor korporativ munosabatlarda mulk huquqini amalga oshirishda muhim rol o'ynashi, lekin bu jarayon qonuniy va shartnomaviy cheklovlariga bog'liq bo'lishi bilan birga bir qator muhim jihatlarni o'ziga jamlashini ta'kidlagan. Xususan, benefitsiar mulkdor kompaniyaning hissadori bo'lsa, u o'z hissalarini orqali korporativ qarorlarda ishtirok etishi va dividend olish huquqiga ega bo'lish bilan birga kompaniya boshqaruvida qatnashib korporativ strategiyalarni belgilashda ishtirok etish orqali mulk huquqini amalga oshirishi mumkin. Bundan tashqari, mulk huquqini amalga oshirish orqali korporativ aktivlarni boshqarish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Dissertantning ta'kidlashicha, mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomasi asosan yirik mulkdorlar sinfi uchun amal qiladi. Mazkur konstruksiyaning benefitsiar mulk bilan bog'liq muhim jihati bu ishonchli boshqaruvchining javobgarligi masalasidir. FKning 859-moddasida ishonchli boshqaruvchi qaysi hollarda javobgar bo'lishi va uning javobgarligi shartlari va talablari belgilangan. Biroq bugungi kunda moliyaviy resurslarni ishonchli boshqarish faoliyatini yuritayotgan subyektlar, xususan, islom moliyasi asosida faoliyat olib boradagi bank tuzilmalarning ishonchli boshqaruvchi sifatidagi javobgarligi chegaralari qonunchilikda aniq belgilanmagan. Bu esa islom moliyasi munosabatlarida banklarning ishonchli boshqaruvchi sifatidagi faoliyatida katta iqtisodiy yo'qotishlarga olish kelish xavfini yuzaga keltirishi mumkin.

Mazkur muammoni hal qilish maqsadida dissertant FKning 859-moddasiga oltin-yettinchi qismi sifatida quyidagi qoidalarni kiritish o'rinli deb hisoblaydi:

"Ushbu moddada nazarda tutilgan qoidalar shartnoma bo'yicha bank ishonchli boshqaruvchi bo'lgan hollarga tatbiq qilinmaydi, bundan ushbu moddaning uchinchi qismi mustasno.

Bank, agar yetkazilgan zararlar bankning o'ziga berilgan vakolatlardan chetga chiqqanligi yoki befarqligi (sovuqqonlik bilan qaraganligi) ta'sirida yuzaga kelganligi isbotlansa, yetkazilgan zararlar uchun javobgardir".

Umumiy qoidaga ko'ra, yuridik shaxsda yakuniy ishtirok ulushi 25% ni tashkil etsa, bu shaxs benefitsiar mulkdor sifatida tan olinishi mumkin. Shuningdek, nazorat faqatgina faktik bo'lishi ham mumkin, ya'ni bevosita yoki bilvosita huquqiy ishtirok etish shart emas. Shu sababli, muayyan holatlarda benefitsiar mulkdor o'zining mulkiy yoki boshqaruv manfaatlarini konduyt tashkilotlarning ijro organlari orqali yoki ularning nominal ishtirokchilariga ta'sir o'tkazish yo'li bilan himoya qila olmasligi mumkin.

Shu bilan birga, yakuniy benefitsiarning moddiy huquqini tan olish masalasida aniq huquqiy asosning mavjud emasligi tashvish uyg'otadi. Chunki u formal jihatdan nazorat qilayotgan tashkilot bilan huquqiy aloqaga ega emas, ammo bilvosita yoki kvazi-bilvosita da'vo kiritish masalasi bahslidir. Agar bunday huquq mavjudligini tasdiqlaydigan normalar bo'lmas va xususiy huquqiy munosabatlar ishtirokchisining huquqiy himoyaga bo'lgan ehtiyoji aniqlansa, bunday hollarda normativ bo'shliqlarni bartaraf etish uchun an'anaviy vosita sifatida analogiyani qo'llash ehtiyoji tug'iladi.

Analogiyadan tizimli ravishda foydalanish tegishli nizolarni hal qilishda amaldagi fuqarolik qonunchiligiga zarur o'zgartishlar kiritilishiga turtki berishi mumkin.

Benefitsiar mulkdor tashkilot faoliyatiga ta'sir o'tkazish huquqini nafaqat huquqiy zanjir orqali, balki konduytlarni chetlab o'tib, to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirishga urinishlar mavjud. Bu qarash asosan FKning 5-moddasidagi qonun analogiyasiga tayangan holda shakllanmoqda.

Shu asosda benefitsiarlar o'z nazoratidagi tashkilotlardan moliyaviy ma'lumotlarni so'rashga harakat qilmoqda. Ular bunday talabni o'zlari ilgari surgan bilvosita da'volar bilan mantiqan bog'lashadi. Bu esa korporativ "parda"ni olib tashlash emas, balki "ochiqlik"ni ta'minlashga qaratilgan.

Biroq, sudlar tomonidan benefitsiar ishtirokchi hisoblanmagani uchun, unda tashkilot hujjatlarini so'rash huquqi yo'q, deb hisoblashadi. Sud amaliyotida bunday huquqiy himoya vositasi mavjud emas deb topilmoqda, shu bois FKning 5-moddasini qo'llash zarur emasligi qayd etilmoqda.

Sudlar benefitsiarning hujjat so'rash talabini rad etar ekan, qonunlarda bunday huquq nazarda tutilmaganini, bu qonunchilikdagi bo'shliq emas, balki umuman bunday himoya vositasi mavjud emasligini anglatadi.

Tadqiqotchi "probenefitsiar" pozitsiya paydo bo'lishidan oldin sudlar yakuniy benefitsiarlarning (yuridik shaxs ishtirokchilari bo'lmagan holda) ikki karra vositali va kvazivositali (hosilalangan) da'volarni berish huquqiga ega emasligi haqidagi pozitsiyani egallagan bo'lsada, "o'xshash holatlarga bir xil qoida qo'llaniladi" tamoyiliga asoslanib, benefitsiarning da'vo huquqi keng talqin qilinishi kerak. Bu nafaqat zararni undirish yoki qarorlarni bahslashtirish, balki nazorat ostidagi tashkilotdan hujjatlar so'rash huquqiga ham taalluqli bo'lishi lozimligini ta'kidlanadi.

Dissertatsiyaning **"Benefitsiar mulk huquqining yuridik tabiatini tushunishning doktrinal asoslari"** deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqotchi tomonidan korporativ munosabatlarda "korporativ parda" doktrinasining benefitsiar mol-mulk maqomini aniqlashga ta'siri, benefitsiar mulkni talqin etishni

takomillashtirish masalalari, xorijiy davlatlarda va mamlakatimizda benefitsiar mulkdorlar reyestrini yuritish va benefitsiar mulk huquqining himoya mexanizmlari ilmiy-nazariy tahlili amalga oshirilgan.

“Korporativ pardani olib tashlash” yuridik shaxslarning mas’uliyatini belgilashda muhim rol o‘ynaydi, ayniqsa, korporativ strukturalarda shaxsiy va korporativ manfaatlar kesishgan holatlarda.

G‘arb mamlakatlarida ushbu institutni qo‘llash amaliyotida eng ko‘p uchraydigan yondashuv shundaki, sudlarga “korporativ pardani olib tashlash” doktrinasini qo‘llash bo‘yicha keng vakolatlar berilgan.

Milliy qonunchilik nuqtai nazaridan esa, shuni hisobga olish kerakki, huquqiy tizimimizda mazkur doktrinaga o‘hshash javobgarlik choralari mavjud, ammo, doktrinani huquqiy tizimda to‘g‘ridan-to‘g‘ri qonunchilik doirasida mustahkamlash muhim hisoblanadi.

“Korporativ pardani olib tashlash” tushunchasini nafaqat korporatsiya va uchinchi shaxslar (sho‘ba korxonasi majburiyatlari uchun asosiy jamiyatning javobgarligi), balki o‘z ishtirokchilari (tashkilotning faoliyatini amalga belgilaydigan shaxslarning javobgarligi) o‘rtasidagi huquqiy munosabatlar sifatida belgilashni nazarda tutish mumkin.

Amaliyotida, kompaniya va uning benefitsiar egasi o‘rtasida ko‘proq qatlamlar bo‘lishi mumkin, ular benefitsiar mulk huquqiga ega shaxsga etib borguniga qadar subyektlar zanjirini tashkil qiladi. Aksiyadorlik jamiyati va uning haqiqiy egasi o‘rtasida bir daraja mavjud bo‘ladi, mas’uliyati cheklangan jamiyat (MCHJ). Bunday holda, benefitsiar egasi bilvosita MCHJ orqali aksiyadorlik jamiyatini nazorat qiladi. MCHJ aksiyadorlik jamiyatining aksiyadori yoki boshqacha aytganda, uning qonuniy egasi, 1-shaxs esa aksiyadorlik jamiyatining benefitsiar mulkdoridir.

FKning 49-bobi bo‘yicha ishonchli boshqaruv shartnomasi normalarini isloh qilish zarur va bu korporativ huquqlar, qimmatli qog‘ozlar, investitsiyalar, pensiya to‘lovlari boshqaruvi bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, investitsion faoliyatni amalga oshirishning yangi shakllari paydo bo‘lishi, shuningdek, oilaviy va meros huquqidagi mol-mulkni “iste‘mol boshqaruvi” (qonun ko‘rsatmalari asosida boshqarish) hamda investitsiya va boshqa tadbirkorlik sohalaridagi “professional boshqaruv” (mol-mulkni boshqaruvga ixtiyoriy topshirish) munosabatlarining sezilarli farqlar bilan bog‘liq.

Ta‘dqiqotchi R.Jang, S.A.Sinisin, Z.E.Benevolenskaya, Dj.V.Kiton, Ben MakFarleyn, Charlz Mitchel, Pettet Cook v Deyeks fikrlarini tahlil etar ekan, bunda anglo-amerika trastlari tajribasi hamda boshqa “ishonchli mulk” modellari O‘zbekiston fuqarolik huquqiga hech qanday shaklda qo‘llanilishi mumkin emasligini qayd etadi. Mulk huquqi unitar bo‘lib qolishi lozim va hech qanday shakllarga ega bo‘lmasligi zarur. Biroq Yevropa huquqidagi funksional o‘xshashlik (analog)lar – boshqaruv obyektidan turli vakillik shakllaridan (to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita) foydalangan holda begona ishlar yuritish majburiyat-huquqiy institutlari O‘zbekiston fuqarolik huquqida qo‘llanilishi mumkin.

Shu bilan birga, benefitsiarning maxsus cheklangan maqomini joriy etish, boshqaruv obyektidan maqsadga muvofiq bo‘lmagan holda foydalanish bo‘yicha

yoki uchinchi shaxsning noxolisligida bitimni haqiqiy emas deb topish, ishonchli boshqaruvchining fuqarolik-huquqiy javobgarligining alohida turini belgilash, moddiy isbotlash majburiyatini qayta taqsimlash va boshqalarda Yevropa davlatlari tajribasini hisobga olish mumkin.

Bugungi kunda dunyoning ko'plab davlatlarida, xususan, Hindiston, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Ispaniya va Italiya qat'iy rejimlar yoki kompaniyalarning benefitsiar egalik huquqini oshkor qilishning boshqa mexanizmini kiritish istagi paydo bo'la boshladi. Maqsad korporativ faoliyatda shaffoflikni oshirish va pul yuvish, terrorizmni moliyalashtirish, soliqlarini to'lashdan bo'yin tovlash va boshqa noqonuniy harakatlarga chek qo'yish hisoblanadi.

Tadqiqotchi tomonidan murakkab korporativ tuzilma ortida yashiringan shaxslarni aniqlash mexanizmini yaratish muhimligi asoslantirilgan.

XULOSA

Fuqarolik huquqida benefitsiar mol-mulkning fuqarolik-huquqiy maqomi mavzusidagi tadqiqot ishi natijasida quyidagi ilmiy-nazariy hamda amaliy taklif va xulosalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy takliflar:

